

BUXORO YAHUDIYLARNING KIYIM-KECHAKLARI

Rasulova Mohichehra Maston qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13959960>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro yahudiylarining moddiy madaniyatining bir tarmog’i hisoblangan kiyim-kechaklari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Sinagoga, zunnor, paranji, mursak, shulxon, Sukkot, Yom Kippur, kallapo’sh.

CLOTHES OF BUKHARA JEWS

Abstract. This article analyzes the clothing of Bukhara Jews, which is considered a branch of material culture.

Key words: Synagogue, zunnor, veil, mursak, shulkhan, Sukkot, Yom Kippur, kallaposh.

ОДЕЖДА БУХАРСКИХ ЕВРЕЕВ

Аннотация. В статье анализируется одежда бухарских евреев, которая считается отраслью материальной культуры.

Ключевые слова: Синагога, Зуннор, покрывало, Мурсак, Шулхан, Суккот, Йом Кипур, Каллапаш.

Tarixdan ma’lumki, har bir xalq, millat o’zining o’tmishi, madaniyati, qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi. Asrlar davomida yurtimizda yashab kelayotgan Buxoro yahudiylari ham yuqoridagi fikrimizning yorqin dalili desak xato bo’lmaydi. Buxoro yahudiylari Moddiy madaniyatining ajralmas bir bo’lagi hisoblangan kiyinish uslubi haqida so’z yuritir ekanmiz ularning o’ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin.

Buxoro yahudiylari kiyinish uslubi haqida to’xtalib o’tadigan bo’lsak, salla erkaklar uchun asosiy bosh kiyim hisoblanib, u qorako’l teridan qilingan. Bunday bosh kiyim Buxoro yahudiylari bilan savdo aloqalari bo’lgan forslar va afg’onlardan kirib kelgan degan ma’lumotlar bor. Buxoro yahudiylari orasida chiroyli naqshlanadigan xalat keng tarqaldi. Buxoro yahudiylari ham kamzul kiyishgan. Shu munosabat bilan, aholisi doimo yaqin bo’lgan tojiklar ta’sirini kuzatish mumkin.

Ayollar uchun kiyimlar quyoshda porlashi mumkin bo’lgan tarzda bezatilgan.

Ular paxta va ipakni birlashtirgan atlas, ipak, olacha matolaridan ishlatishgan. Mato tom ma’noda yorqin ranglarga to’la quyoshda porlab turardi. Yosh qizlar 2 ta ko’ylak kiyishadi-biri ikkinchisining tagida. Pastki qismi har doim ochiq rangda, tepasidagi esa ochiq bo’lmagan rangda

bo'lgan. Ba'zan ayollar kiyimlarini ustidan xalat kiyishgan. U turli xil munchoqlar bilan chiroyli bezatilgan, yenglarni bezash uchun oltin braid ishlatilgan¹.

Buxoro amirligi davrida yahudiylar musulmonlardan farqlanib turish uchun yahudiy erkaklari zunnor taqib, ayollar esa paranjiga ko'rinarli yamoq tiqib qo'yishgan. Buxoro amirligida Amir Sayid Abdulahadxonning davrida ham yahudiy ayollar tashqarida paranjida yurishgan, ammo Samarqanddagi Buxoro yahudiylari musulmon ayollaridan farqli ravishda, o'z guzarlaridagi hovli ichkarisida begona erkak kelganda paranjilarini kiymaganlar. XIX asrning so'ngiga kelib rus-tuzem ta'limining ta'siri sabab juda ko'plab Turkiston general-gubernatorligidagi yahudiy ayollari paranji kiymay qo'yishgan². Ammo bu paytda hali ham Samarqand, Buxoro va Qo'qondagi savdo sabab tarqalgan Buxoro yahudiylari paranjilarini tashlamagan edilar.

XX asrning boshida Markaziy Osiyoni tadqiq etishga kelgan bir guruh etnograf olimlar Turkistondagi paranjisiz ayollarni fotosuratlarini tarixga muhrlashga muvaffaq bo'lganlar, chunki ular umuman paranjidan voz kechishgandi. Shunga qaramay, boshlarida "kallapo'sh"- do'ppilari bo'lgan³.

Rossiya Etnografiya Muzeyi to'plami (REM) Buxoro yahudiylarining XIX asr oxirlari – XX asr boshlaridagi an'anaviy – maishiy madaniyatiga oid buyumlari soni 300 tani tashkil etadi. Biroq ularning ko'p qismi 1900 – yillarning o'rtalaridan boshlab muzeyga keltirila boshlangan. Eski davrga tegishli eksponatlar juda ham oz va ular REMga 1948 – yilda keltirilgan⁴. Bular erkaklar choponi va uchta bosh kiyimidan iborat, 1872 – yilgi Moskva ko'rgazmasida namoyish qilingan, keyin esa ushbu muzeyning "Turkiston kolleksiyasi" dan o'rin olgan. 1926- yilda Samarqandda yana o'ndan ortiq eksponatlar, xususan, diniy rusum anjomlari S.P.Preobrajenskiy tomonidan topilgan.

Bu eksponatlar o'rganilar ekan, asrlar davomida bitta makonda yashab kelgan o'zbeklar, tojiklar va Buxoro yahudiylari maishiy hayoti va xalq amaliy san'atidagi o'xshashlik katta ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin⁵. Jumladan, yahudiylar ko'pincha uy-ro'zg'or ishlarida, odatiy turmushda o'zlari yashaydigan hududdagi boshqa xalqlarning hunarmadchilik

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/etnografiya-uz/>

² Rajabova D.Y. Buxoro amirligida yahudiy ayollari bilan bog'liq ijtimoiy stratifikatsion jarayonlar. // Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha) mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Buxoro. 2023. – B. 466.

³ Т.Г. Емельяненко. Традиционный костюм бухарских евреев (проблемы этнокультурной идентичности). Автореферат (на соискание ученой степени доктора исторических наук). 2012.

⁴ Rajabova D.Y. Buxoro amirligida yahudiy ayollari bilan bog'liq ijtimoiy stratifikatsion jarayonlar. // Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha) mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Buxoro. 2023. – B. 466.

⁵ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/etnografiya-uz/>

mahsulotlaridan – kiyim-kechaklari, matolar, uy-ro'zg'or buyumlaridan foydalanishgan. Shu bois XX asr oxirida REMda Buxoro yahudiylariga tegishli narsalar saralanar ekan, etnografik jihatdan ularni yanada chuqurroq tadqiq etib, maishiy hayotdagi o'ziga xos jihatlariga katta e'tibor qaratilgan⁶.

Kolleksiya asosan erkaklar va ayollar kiyimlari, zargarlik buyumlari, Shabat va diniy bayramlarda muqaddas sharoblarni ichish uchun ishlatiladigan turli ko'rinishdagi kumush qadahlar, sopol xumlar (ular da marosimlar uchun maxsus sharoblar tayyorlangan va saqlangan), misdan ishlangan yapasqi patnis-la'lilar, bayram yeguliklari pishiriladigan maxsus mis idish-tovoqlar, qozonlarni o'z ichiga oladi. Misdan ishlangan buyumlar diniy qarashlarga ko'ra pok va muqaddas sanalgan. Shu bois oilalarda eski idishlar avaylab saqlangan. Kolleksiyalarda bayram uchun ishlatiladigan uy-ro'zg'or buyumlari – Sukkot bayrami kuni pastak yahudiycha stol- shulxon ustiga yoziladigan dasturxon, Buxoro yahudiylari talablariga ko'ra o'zbek kashtado'zlari tikkan maxsus kashtalarni (ular rangi va tasvirlari bilan mahalliy kashtalardan ajralib turgan) ham uchratish mumkin.

Buxorolik yahudiy ayollar uzun mursak, ko'ylak, bosh kiyimlar kiyib, paranji yopinib yurishgan. Muzey eksponatlarining guvohlik berishicha, Buxoro yahudiylarining bayram liboslari, eng avvalo, mato xususiyatiga ko'ra farq qilgan⁷. Yahudiy erkak kiyimlari yarim ipak yoki toza ipak matolardan tikilgan, musulmon erkaklari uchun esa ipak kiyish maqbul sanalmagan. Yahudiy liboslarida atlasdan keng foydalanilgan, o'zbeklarda esa atlas faqat sovet davrida ommalashgan. Ilgari atlas matolari fakat ko'rpa va ko'rpachalar uchun ishlatilgan.

Shuningdek, ularning kiyimlarida qo'shni xalqlar kiyim - kechaklarida parcha tarzida uchraydigan sariq va yashil ranglar ustunlik qilgan. Shu va boshqa belgilar yahudiylarning liboslariga ularning estetik tasavvurlari va dunyoqarashlariga uyg'un bo'lgan alohida ko'rinish kasb etgan.

Buxoro yahudiylari orasida erkaklarning an'anaviy keng choponlari va ayollarning kiyimlari, Yevropa liboslari keng yoyila boshlagan XX asrda ham saqlanib qolavergan. Kelin - kuyovlarning otalari to'ylarda avlod dan avlodga o'tib kelayotgan maxsus choponlarini, onalar va opalar ham maxsus kidushlarini kiyganlar . Yahudiy larning mashhur Yom Kippur (Mahshar kuni) bayramida ham xuddi shu kabi yakrang yorqin liboslar tikilgan . REM to'plamlarida faqat Buxoro yahudiylari uchun xos bo'lgan eksponatlar qatoriga ayollarning to'ppi deb ataladigan zardo'zi

⁶ Т.Г. Емельяненко. Традиционный костюм бухарских евреев (проблемы этнокультурной идентичности). Автореферат (на соискание ученой степени доктора исторических наук). 2012.

⁷ Т.Г. Емельяненко. Традиционный костюм бухарских евреев (проблемы этнокультурной идентичности). Автореферат (на соискание ученой степени доктора исторических наук). 2012.

bosh kiyimlari, ro'moli pulakchi - uchburchak zarli ro'mollarini kiritish mumkin. REM kolleksiyalarida Buxoro yahudiylarining zargarlik buyumlaridan ham o'zbeklarnikidan alohida ajralib turadigan jihatlarni topish qiyin. Faqat Buxoro yahudiylari taqinchoqlarida oltin va boshqa qimmatbaho toshlardan ko'proq foydalanilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyo zargarlik buyumlarida kumushdan taqinchoqlar yasash keng ommalashgan bo'lib, ayrim taqinchoqlarning tagi kumushdan yasaliib, ustiga oltin qoplamalar o'rnatilgan⁸. Yahudiy zargarlari esa butunlay oltindan yasalgan taqinchoqlarni ko'proq ishlab chiqarganlar. Ayrim taqinchoqlarda ham o'ziga xos farqlar sezilib turadi. Masalan, tilla buyumlar, zebigardondar, marjon shodalari ishlatilgan yirik taqinchoqlar o'zbeklarnikiga qaraganda kattaroq va og'irroq bo'lgan. Bunday taqinchoqlarni o'tmishda faqat o'ta boy xonadon vakillari taqib yurishlari mumkin bo'lgan. Ammo Buxoro yahudiylarida kuyov bunday taqinchoqlarni kelinga sovg'a qilishi shart bo'lgan. Bu holat ushbu qatlamning o'sha paytda nisbatan to'q yashaganidan darak bermaydi. Aksincha, kelin yoki kuyov vaqti kelib iqtisodiy jihatdan qiynalib qolsa, sotib, pulini ishlatishi uchun ularga ana shunday qimmat seplar berilgan. Buxoro yahudiylari taqinchoqlar yasatish uchun nafaqat yahudiy, balki o'zbek zargarlariga ham murojaat qilishgan. Bugun yahudiy xonadonlarida saqlangan va muzey to'plamidan joy olgan zargarlik buyumlari nafaqat Buxoro yahudiylarida, balki o'zbeklarda ham zargarlik san'atining yuksak an'analari mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar Buxoro yahudiylari ko'p asrlar davomida o'rnatilgan munosabatlarga rioya qilgan holda o'z xalqlarining milliy an'alarini davom ettirmoqdalar.

REFERENCES

1. Rajabova D.Y. Buxoro amirligida yahudiy ayollari bilan bog'liq ijtimoiy stratifikatsion jarayonlar. // Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha) mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Buxoro. 2023
2. Т.Г. Емельяненко. Традиционный костюм бухарских евреев (проблемы этнокультурной идентичности). Автореферат (на соискание ученой степени доктора исторических наук). 2012
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/etnografiya-uz/>

⁸ Т.Г. Емельяненко. Традиционный костюм бухарских евреев (проблемы этнокультурной идентичности). Автореферат (на соискание ученой степени доктора исторических наук). 2012.

4. Muxamedovna, G. M. (2023). MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISH AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 178-180.
5. Muxamedovna, G. M. (2023). TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 175-177.
6. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
7. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.
8. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097-1103.
9. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464.
10. Universiteti, G. M. M. O. X. (2023). Uchinchi Renesans Davrida Ajdodlarimiz Merosini Organish Orqali Integratsion Ta'limni Yanada Takomillashtirish Tamoyillari: Часть 1 Том 1 Июль 2023 Год. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 1(1), 11-16.
11. Gadayeva, M. (2024). Attack Action. *Modern Science and Research*, 3(1), 1028-1033.
12. Gadayeva, M. (2023). ONE OF THE TIMURID QUEENS IS BIBIKHONIM. *Modern Science and Research*, 2(12), 749-754.
13. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
14. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
15. Muxamedovna, G. M. (2023). Uchinchi renesans davrida ajdodlarimiz merosini organish orqali integratsion ta'limni yanada takomillashtirish tamoyillari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 35-38.
16. Muxamedovna, G. M. (2023). History Of Patriotic Women. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.
17. Muxamedovna, G. M. (2023). Innovatsion TaLim-Buyuk Kelajak Poydevori. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
18. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).

19. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O 'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.
20. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
21. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
22. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
23. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
24. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
25. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
26. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
27. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
28. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
29. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
30. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
31. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 655-659.
32. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
33. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.

34. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
35. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
36. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
37. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
38. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401
39. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
40. Yuldosheva , F. Y. qizi. (2023). LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING "QADIMGI TURKLAR" ASARIDA KO'KTURKLAR YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 338–342. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3908>
41. Ahmadov, A., & Rasulova, M. M. qizi. (2023). BUXORO YAHUDIYLARINING MILLIY BAYRAM VA MAROSIMLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(10), 373–376. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3068>